

“SAT Ziyo” onlayn platformasidan foydalanish bo'yicha

OMMAVIY OFERTA (JAMOAT TAKLIFI)

Tahrir sanasi: 25.02.2025

Mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va “Elektron tijorat to'g'risida”gi Qonunga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi hamda quyida ko'rsatilgan shartlarda jismoniy shaxslar (keyingi o'rinlarda – “Foydalanuvchi”)ga onlayn xizmatlar ko'rsatish yuzasidan shartnoma tuzish taklifini bildiradi.

Mazkur ofertani qabul qilish (aksept qilish) orqali Foydalanuvchi “QORAKO'L ACADEMY” MCHJ bilan ushbu shartlar asosida xizmat ko'rsatish shartnomasini tuzgan hisoblanadi.

1. Tomonlar va rekvizitlar

1.1. Ijrochi (Xizmat ko'rsatuvchi tomon):

“QORAKO'L ACADEMY” mas'uliyati cheklangan jamiyati

(OOO “QORAKO'L ACADEMY” / “QORAKO'L ACADEMY” MCHJ)

- STIR (TIN): 306 644 475

- Yuridik manzil:

R. O'zbekiston, Toshkent shahri, Olmazor tumani, QIZIL TUT ko'chasi, 84B-uy

- Hisob raqam: 2020 8000 2051 1266 0002

- Bank: “XALQ BANK” AT (ЧАКБ «XALQ BANK»)

- MFO: 01125

1.2. Foydalanuvchi – SAT Ziyo platformasida ro'yxatdan o'tgan va/ yoki xizmatlarni to'lagan, to'liq muomala layoqatiga ega jismoniy shaxs.

1.3. Platforma / Sayt – “SAT Ziyo” onlayn platformasi:

asosiy domen: <https://satziyo.uz> (shu jumladan <https://satziyo.uz/dashboard> va boshqa bog'liq sahifalar).

2. Atamalar

2.1. Shaxsiy kabinet (Akkaunt) – Foydalanuvchining login (e-pochta) va tasdiqlash kodi (OTP) orqali kiriladigan, faqat Foydalanuvchining o'zi foydalanishi lozim bo'lgan yopiq bo'lim.

2.2.

Xizmatlar

– SAT Ziyo platformasi orqali taqdim etiladigan raqamli (onlayn) xizmatlar:

- SAT imtihoniga tayyorgarlik bo'yicha onlayn testlar;

- natijalar va statistika bo'yicha analitika;

- boshqa raqamli o'quv materiallari va funksiyalar.

2.3.

Tariflar / Obunalar

– Foydalanuvchi tanlaydigan xizmatlar to'plami va ularning narxi, muddati. Asosiy tariflar:

- Free – cheklangan funksiyalar, ma'lum miqdorgacha bepul testlar (hozirda 8 ta bepul testgacha);

- Premium – pullik oylik obuna, barcha to'liq testlar, kengaytirilgan analitika va qo'shimcha funksiyalar bilan.

2.4. Avtospisaniya (avtomatik yechib olish) – Foydalanuvchi kartasi tokenini saqlagan holda, Premium obunasini oyma-oy avtomatik uzaytirish uchun belgilangan to'lovni avtomatik tarzda yechib olish funksiyasi.

3. Oferta predmeti

3.1. Ijrochi Foydalanuvchiga SAT imtihoniga tayyorgarlik bo'yicha onlayn xizmatlarni SAT Ziyo platformasi orqali taqdim etadi, Foydalanuvchi esa ushbu xizmatlarni qabul qiladi va UZS da to'laydi.

3.2. Xizmatlarning aniq hajmi, muddati va narxi Siteda tegishli sahifalarda (masalan, "Practice", "Pricing" bo'limlarida) va shaxsiy kabinetda ko'rsatiladi.

3.3. Xizmatlar ta'limiy/axborot-konsultatsion xarakterga ega bo'lib, ularning asosiy maqsadi – Foydalanuvchining SAT imtihoniga tayyorgarligini yaxshilashdir.

4. Ofermani qabul qilish (aksept) va shartnomaning tuzilishi

4.1. Mazkur oferta doimo ochiq holda Saytning /oferta sahifasida e'lon qilinadi.

4.2. Foydalanuvchi quyidagi harakatlardan birini bajargan paytdan boshlab shartnoma tuzilgan hisoblanadi:

- Saytda ro'yxatdan o'tib, e-pochta manziliga yuborilgan bir martalik tasdiqlash kodini (OTP) kiritishi;
- SAT Ziyo platformasida xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirishi (tarif/obunani sotib olishi);
- Avval yaratilgan akkauntga kirib, Pullik funksiya va xizmatlardan foydalanishni boshlashi.

4.3. Foydalanuvchi aksept orqali:

- ofertani to'liq o'qib chiqqanini;
- barcha shartlarni tushunganini;
- ushbu shartlarga roziligini bildiradi.

5. Ro'yxatdan o'tish va xavfsizlik

5.1. Ro'yxatdan o'tishda Foydalanuvchi haqiqiy e-pochta manzilini va talab etilgan boshqa ma'lumotlarni kiritishi shart.

5.2. Kirish/tasdiqlash e-pochta orqali yuboriladigan bir martalik kod (OTP) yordamida amalga oshiriladi. Uchinchi shaxslar Foydalanuvchining pochta yoki akkauntiga kirishi Foydalanuvchining o'z xavfi ostida.

5.3. Foydalanuvchi akkaunt ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga bermaslikka, parol yoki tasdiqlash kodlarini xavfsiz saqlashga majbur.

5.4. Shubhali faollik, ruxsatsiz kirish yoki firibgarlikdan gumon bo'lganda, Foydalanuvchi darhol ko'rsatilgan aloqa kanallari orqali Ijrochiga xabar berishi lozim.

5.5. Shartlar buzilganda, tizimni buzish yoki chetlab o'tishga urinishlarda Ijrochi akkauntini vaqtincha bloklash yoki butunlay o'chirib tashlash huquqiga ega.

6. Faoliyat sohasi va avtospisaniya funksiyasi

6.1. "QORAKO'L ACADEMY" MCHJ SAT Ziyo platformasi orqali SAT imtihoniga onlayn

tayyorgarlik bo'yicha ta'lim xizmatlari ko'rsatadi.

6.2. Karta tokenlarini saqlash va avtospisaniya:

- Premium obunasini rasmiylashtirishda Foydalanuvchi o'z bank kartasi bo'yicha to'lovni tasdiqlaydi va kartaning tokenini mahalliy to'lov provayderi (masalan, Payme) orqali saqlashga rozilik beradi.
- Shundan so'ng, Premium obuna oylik asosda avtomatik ravishda uzaytiriladi, Foydalanuvchi obunani o'zi bekor qilmaguncha.
- Oylik obuna narxi Saytda UZS da ko'rsatiladi; bu miqdor, qoida tariqasida, bir oyga taxminan 15 AQSh dollari ekvivalentiga mos keluvchi summa bo'lishi mumkin, biroq barcha hisob-kitoblar faqat UZS da amalga oshiriladi.

6.3. Foydalanuvchi Premium obunasining avtospisaniya funksiyasini:

- Shaxsiy kabinet orqali (obunani bekor qilish tugmasi orqali), yoki
- qo'llab-quvvatlash xizmatiga yozma murojaat qilish orqali bekor qilishi mumkin.

6.4. Avtospisaniya bekor qilinmaguncha, to'lovlar belgilangan muddatda (oyma-oy) avtomatik tarzda amalga oshiriladi.

7. Narxlar, valyuta va to'lov tartibi

7.1. Barcha tariflar va narxlar faqat O'zbekiston so'mida (UZS) ko'rsatiladi.

7.2. To'lov usullari:

- Onlayn to'lovlar Payme va boshqa litsenziyaga ega mahalliy to'lov tizimlari orqali;
- Bank kartalari, elektron hamyonlar va boshqa usullar – Siteda ko'rsatilgan variantlarga muvofiq.

7.3. Ijrochi valyuta konvertatsiyasini amalga oshirmaydi.

Agar Siteda USD yoki boshqa valyutadagi summa ko'rsatilsa, bu faqat ma'lumot uchun bo'lib, haqiqiy hisob-kitob har doim UZS da amalga oshiriladi.

7.4. To'lov muvaffaqiyatli tugagani Payme yoki boshqa to'lov provayderining muvaffaqiyat xabari bilan tasdiqlanadi.

7.5. Ijrochi narxlarni va tariflarni bir tomonlama tartibda o'zgartirish huquqiga ega. Yangi narxlar e'lon qilingan paytdan boshlab kelgusidagi to'lovlarga nisbatan qo'llanadi va avval to'langan xizmatlarga ta'sir qilmaydi.

8. Xizmat ko'rsatish tartibi

8.1. To'lovdan so'ng Foydalanuvchiga tanlangan tarifga mos ravishda SAT Ziyo platformasining tegishli bo'limlari va funksiyalariga online kirish beriladi.

8.2. Xizmatlar, odatda, avtomatik tarzda, to'lov tasdiqlangandan keyin bir necha daqiqa ichida faollashtiriladi. Texnik kechikishlar bo'lganda, Ijrochi imkon qadar tezkor bartaraf etishga intiladi.

8.3. Xizmatlar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin (lekin ular bilan cheklanmaydi):

- to'liq formatdagi SAT testlari;
- test natijalari bo'yicha batafsil tahlil va grafiklar;
- qo'shimcha mashq materiallari;
- shaxsiy kabinet orqali maqsad ballari, test tarixini ko'rish va boshqalar.

9. Pulni qaytarish, shikoyatlar va 48 soatlik muddat

9.1. SAT Ziyo raqamli (onlayn) xizmatlar ko'rsatadi. Raqamli kontentga kirish berilganidan keyin, umumiy qoida bo'yicha, to'lov qaytarilmaydi, bundan:

- texnik nosozlik tufayli xizmatdan foydalanishning imkonsiz bo'lib qolishi;
- tasodifiy yoki ikki marta yechib olish (double charge);
- qonun talablariga ko'ra majburiy qaytarish holatlari

kabi istisnolar mustasno.

9.2. Foydalanuvchi quyidagi hollarda to'lovdan keyin 48 soat ichida qo'llab-quvvatlash xizmatiga yozma murojaat qilishi kerak:

- texnik nosozlik sababli platformaga umuman kira olmasa yoki funksiyalar ishlamasa;

- tasodifiy ikki marta yechib olish;
- boshqa jiddiy texnik xatoliklar.

9.3. 48 soatlik muddat ichida yuborilgan asosli murojaatlar bo'yicha Ijrochi:

- avvalo Foydalanuvchiga kirishni tiklashga yoki xizmatni to'liq hajmda taqdim etishga harakat qiladi;
- agar bu imkonsiz bo'lsa yoki qonunda bevosita nazarda tutilgan bo'lsa, to'langan summaning to'liq yoki qisman qaytarilishini ko'rib chiqadi.

9.4. Qaytarish to'g'risidagi yakuniy qarorni Ijrochi mavjud loglar, to'lov ma'lumotlari va texnik axborot asosida qabul qiladi.

9.5. Jismoniy tovarlar (agar mavjud bo'lsa) uchun qaytarish va almashish tartibi amaldagi iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida gi qonunchilikka muvofiq alohida bo'limda (PDF ofertada) batafsil tartibga solinadi.

10. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

10.1. Foydalanuvchi:

- ro'yxatdan o'tishda to'g'ri ma'lumot kiritishi;
- akkaunt ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga bermasligi;
- platformadan faqat qonuniy maqsadlarda foydalanishi;
- mualliflik huquqlari va boshqa intellektual mulk huquqlariga rioya qilishi shart.

10.2. Foydalanuvchiga taqiqlanadi:

- platformadan spam, firibgarlik, noqonuniy kontent tarqatish uchun foydalanish;
- tizim xavfsizligini buzishga urinish, kodni buzish, chetlab o'tish;
- SAT Ziyo kontentini ruxsatsiz ko'paytirish, tarqatish yoki uchinchi shaxslarga pulli-bepul berish.

10.3. Ijrochi:

- xizmatlarni e'lon qilingan hajm va muddada taqdim etishi;
- texnik barqarorlik va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash uchun zarur choralarni ko'rishi;
- Foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish bo'yicha amaldagi qonunchilikka rioya qilishi shart.

10.4. Ijrochi quyidagi hollarda xizmat ko'rsatishni cheklashga yoki bekor qilishga haqli:

- Foydalanuvchi ushbu Oferta shartlarini yoki qonunchilikni buzsa;
- firibgarlik, tizimga hujum, boshqa foydalanuvchilarning huquqlarini buzish holatlari aniqlansa.

11. Kafolatlar va javobgarlikni cheklash

11.1. Ijrochi platformani imkon qadar uzluksiz va xatosiz ishini ta'minlashga intiladi, biroq Internet tarmog'i, uchinchi tomon provayderlari, apparat nosozliklari va boshqa nazoratdan tashqari holatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

11.2. SAT Ziyo:

- aniq SAT balli, grant, universitetga kirish yoki boshqa natijalarni kafolatlamaydi;
- Foydalanuvchining o'qish faoliyati, vaqt ajratishi, individual qobiliyatlari va boshqa omillar natija uchun hal qiluvchi ekanini bildiradi.

11.3. Hech qanday holatda Ijrochi bevosita yoki bilvosita:

- foyda yo'qotishlari;
- ma'lumotlar yo'qolishi;
- uchinchi shaxslarning da'volari

uchun Foydalanuvchiga nisbatan qo'shimcha javobgarlik olmaydi, agar bunday javobgarlik bevosita qonunda ko'rsatilmagan bo'lsa.

12. Shaxsiy ma'lumotlar va maxfiylik

12.1. Foydalanuvchidan olingan shaxsiy ma'lumotlar (ism, e-pochta, to'lov ma'lumotlari va boshqalar) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq qayta ishlanadi.

12.2. Ma'lumotlar asosan quyidagi maqsadlarda qo'llaniladi:

- ro'yxatdan o'tish va akkauntga kirishni ta'minlash;
- OTP kodi yuborish;
- xizmatlarni ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash;
- to'lovlarni amalga oshirish va buxgalteriya hisobi.

12.3. Foydalanuvchi shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga va zarur hollarda ularni litsenziyaga ega to'lov provayderlari va texnik hamkorlarga (faqat ko'rsatilgan maqsadlar doirasida) berishga rozilik bildiradi.

13. Shartnomaning amal qilish muddati va bekor qilinishi

13.1. Mazkur Oferta Foydalanuvchiga Siteda e'lon qilingan paytdan boshlab amal qiladi va Ijrochi tomonidan yangi tahrir e'lon qilinmaguncha kuchda bo'ladi.

13.2. Foydalanuvchi:

- istalgan vaqtda Premium obunasini bekor qilish (avtospisaniyani o'chirish);
- akkauntni yopish to'g'risida Ijrochiga murojaat qilish huquqiga ega.

13.3. Ijrochi yangi tahrirni Siteda e'lon qilish orqali Oferta shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga haqli. Yangi tahrir e'lon qilingan paytdan boshlab qo'llanadi.

14. Yakuniy qoidalar

14.1. Kelib chiquvchi barcha nizolar, avvalo, muzokaralar va yozma murojaatlar orqali hal qilinishi kerak. Tomonlar kelishuvga erisha olmasa, nizo Ijrochi ro'yxatdan o'tgan joy bo'yicha vakolatli sudda ko'rib chiqiladi.

14.2. Oferta matni Siteda joylashtirilgan o'zbek tilidagi tahrirga muvofiq talqin qilinadi. Zarurat bo'lsa, boshqa tillardagi tarjimalar ma'lumot uchun qo'yilishi mumkin, lekin tafovut bo'lsa,

o'zbekcha matn ustun hisoblanadi.

Ijrochining rekvizitlari

“QORAKO’L ACADEMY” MCHJ

(OOO “QORAKO'L ACADEMY” / "QORAKO'L ACADEMY" MCHJ)

- STIR: 306 644 475

- Yuridik manzil:

R. O'zbekiston, Toshkent shahri, Olmazor tumani, QIZIL TUT ko'chasi, 84B-uy

- Hisob raqam: 2020 8000 2051 1266 0002

- Bank: “XALQ BANK” AT (AT «XALQ BANK»)

- MFO: 01125

- Telefon: +998 (90) 927 72 98

- Elektron pochta: abbosotkirov9277299@gmail.com

- Sayt: <https://satziyo.uz>